

ZAMONAVIY PSIXOLOGİYANI MAKTAB TA'LİMIGA INTEGRATSIYA QILISHDA AMALIYOTCHI PSIXOLOGLARNING O'RNI

Yigitaliyeva Ziroatxon Eminjonovna

Farg'ona viloyati Bag'dod tumani

19-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Maqolada zamonaviy psixologiyani maktab ta'limiga integratsiya qilishda amaliyotchi psixologlarning o'rni, ahamiyati, vazifalari tahlil qilingan, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar jarayonida psixologiyaning ushbu holatlarda ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Zamonaviy psixologiya, ta'limda integratsiya, islohotlar, psixologiya, maktab ta'limi, ta'lim jarayonlari.

Jahonda zamon talablariga mos, ijtimoiy farovonlikni ta'minlashga xizmat qiladigan, innovatsion usullar bilan qurollangan psixologik xizmatning tashkil etilishi bo'yicha strategiyaga asoslangan ishlar olib borilmoqda. Ushbu strategiya asosida "Xalqaro psixologiya fanlari akademiyasi (Yaroslavl) talablariga muvofiq psixologik xizmatni tashkil etish va rivojlantirishning ilg'or prinsiplari muntazam ravishda takomillashib bormoqda", deb qayd qilingan. Ayni paytda, Halqaro psixologiya fanlari akademiyasi (Yaroslavl) tomonidan muhokama qilinayotgan nazariy va amaliy ishlar psixologik xizmat faoliyatining bugungi kundagi zamonaviy qiyofasini belgilab bermoqda. Shu nuqtayi nazardan, psixologik xizmatni rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarni takomillashtirishga asoslangan innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda. Jahon miqyosida psixologik xizmat masalasi hamisha keng ijtimoiy va ilmiy jamoatchilikning diqqat markazida bo'lib kelgan. Shu nuqtayi nazardan olganda insonga munosabatning tobora takomillashuvi aholining turli guruhlariga psixologik xizmat ko'rsatish masalasiga ham e'tiborni kuchayib borishiga olib kelmoqda. Xususan, 1892-yil tashkil topgan Amerika psixologlar assotsiatsiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan aholining turmush darajasini yaxshilash

uchun uning ruhiy salomatligini tiklash borasidagi qator dasturlar, YUNESKO tashkiloti qoshidagi Halqaro psixologiya fanlari ittifoqi – IUPsyS (International Union of Psychological Science) tomonidan 2009-2016-yillar davomida ta’lim subyektlariga psixologik xizmat ko’rsatishning o’ziga xos hududiy tomonlarini tadqiq etishga qaratilgan fundamental loyihalar, 2016-yilda qabul qilingan “2025-yilga qadar Rossiya Federatsiyasida ta’lim tizimidagi psixologik xizmatni rivojlantirish konsepsiyasi” doirasida amalga oshirilgan ishlar aholining turli guruhlaridagi muammolarning kelib chiqishiga sabab bo’luvchi ijtimoiy-psixologik omillarni hududlarda tizimli ravishda o’rganib, professional darajada psixologik tavsiyalar bera oluvchi psixologlar faoliyatini takomillashtirishga va psixologik xizmatni tashkil etishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tadqiq etishga bo’lgan ehtiyojning tobora ortib borayotganligini ko’rsatmoqda. Bugungi kunda psixologik xizmat yo’nalishidagi ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta’lim muassasalari, jumladan, Kaliforniya universiteti (AQSH), Stenford universiteti (AQSH), Manchester universiteti (Buyuk Britaniya), Vuppertal universiteti (Germaniya), Avstraliyaning Melburn universiteti, Italiyaning Trento universiteti, Halqaro psixologiya fanlari akademiyasi (Yaroslavl), Rossiya psixologik xizmat ko’rsatish federal resurs markazi, Rossiya fanlar akademiyasi huzuridagi Psixologiya ilmiy-tadqiqot instituti va Lomonosov nomidagi Moskva davlat universitetida olib borilmoqda. Psixologik xizmatni shakllantirish mexanizmlari bilan bog’liq tadqiqotlarda quyidagi natijalar olingan: psixologik xizmatning shaxs ijtimoiylashuviga ko’rsatadigan ta’siri tadqiq etilgan (Stanford University), turli guruhlarining psixologik tavsifi, ijtimoiy xulq-atvorning tamoyillari ishlab chiqilgan (University of Manchester) o’smirlar bilan olib boriladigan xulq og’ishlarining oldini olish bo’yicha konsepsiya yaratilgan (Bergische Universität), psixoprofilaktik ishlarning modeli va tuzilmasi ishlab chiqilgan (University of Melbourne), muayyan jamiyatni shaxs shakllanishiga ta’sirini o’rganuvchi psixodiagnostik metodikalari yaratilgan (Trento of universities), muhitga nisbatan shaxs xulq-atvorida shaxslilik xususiyatlarni namoyon etishi, ijtimoiy faollikni amalga oshirishda psixologik ta’sir ko’rsatish mexanizmlari aniqlangan (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti). Ayni paytda, umumjahon muammolaridan biri hisoblangan

psixologik xizmatni ilmiy tadqiq qilish borasida ko‘plab xorijiy mamlakatlar va respublikamizda bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ularda mazkur muammoning kelib chiqishiga ta’sir etuvchi ijtimoiy–psixologik omillar, statistik, demografik, huquqiy va hududiy xususiyatlar ilmiy tahlil qilingan. Psixologik xizmat va uning tashkil qilinishi hamda rivojlanishiga ta’sir etuvchi psixologik mexanizmlar hozirgi kungacha bir qator mamlakatlar va xorij olimlari tomonidan ko‘plab tadqiqotlarning predmetiga aylangan. Ilg‘or psixologiya fani vakillari ijtimoiy psixologiyaning metodologik tamoyillariga amal qilgan holda psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan u yoki bu jihatni nazariy ilmiy tarzda asoslab beradilar. Keyingi paytlarda ham o‘zbek olimlari tomonidan himoya qilinayotgan doktorlik dissertatsiyalarida psixologik xizmat amaliyotiga daxldor tadqiqot natijalarini ko‘rish mumkin. Jumladan, P.S.Ergashev o‘z tadqiqotlarida simmetriya hissining fenomenologik tahliliga e’tiborini qaratib, turli yoshdagi bolalardagi simmetriya hissi tahlili va korreksiyasiga daxldor ma’lumotlardan kelib chiqib, shaxslararo rivojlanishdagi uning ahamiyatini ko‘rsatib o‘tadi. U.D. Qodirov yoshlarni destruktiv ta’sirlardan himoya qilish bo‘yicha bir qator ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqqan. Jumladan, olim har bir shaxsda ifodalanadigan antimanipulyativ (assertiv) xulqni o‘rganishda muayyan mezon asosida ish ko‘rib, psixologik xizmat uchun muhim bo‘lgan shaxsning o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarish tushunchalarini ilmiy asoslab bergan. O‘.B.Shamsiyev mahallaning ajralmas qismi hisoblangan oilaviy munosabatlarda bola ijtimoiylashuvining shakllanishi uchun muhim bo‘lgan psixologik omillarni ilmiy asoslab bergan hamda oilada shaxslararo (ona-bola) munosabatlarga bevosita ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini tahlil qilgan.

Asosiy adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni "Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida" (O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2001-y., 1- 2-son, 15-modda).
2. Алешина Ю. Э. Индивидуальное и семейное психологическое консультирование. М., 1999.